
Qabul qilindi: 8-sentabr 2026-yil • Ma’qullandi: 14-sentabr 2026-yil • Nashr qilindi: 19-sentabr 2026-yil

IKKINCHI JAHON URUSHI YILLARIDA XORAZM VILOYATIDA HARBIY SAFARBARLIK VA HARBIY TAYYORGARLIK TIZIMI

Ishchanova Oybika Farhod qizi
Erkin tadqiqotchi
oybikai@gmail.com



Annotatsiya. Mazkur maqolada 1941–1945-yillarda Xorazm viloyatida harbiy safarbarlik, ixtiyoriy front harakati va umumiy harbiy ta’lim tizimi tahlil qilinadi. Harbiy komissariatlar, komsomol, OSOAVIAHIM, MPVO va Qizil yarimoy tuzilmalarining zaxira kadrlar tayyorlashdagi o‘rni, harbiy o‘qitish punktlari va ta’lim muassasalaridagi tayyorgarlik yoritiladi. Hududning transport-geografik sharoiti hamda yoshlar va xotin-qizlarning safarbarlikdagi ishtiroki tarixiy manbalar asosida baholanadi.

Kalit so‘zlar: Ikkinchi jahon urushi, Xorazm viloyati, harbiy safarbarlik, harbiy tayyorgarlik, harbiy komissariat, OSOAVIAHIM, xotin-qizlar, yoshlar, zaxira kadrlar, hududiy tarix.

ВОЕННАЯ МОБИЛИЗАЦИЯ И СИСТЕМА ВОЕННОЙ ПОДГОТОВКИ В ХОРЕЗМСКОЙ ОБЛАСТИ В ГОДЫ ВТОРОЙ МИРОВОЙ ВОЙНЫ

Аннотация. В статье анализируются военная мобилизация, добровольческое движение и система всеобщей военной подготовки в Хорезмской области в 1941–1945 гг. Рассматривается роль военных комиссариатов, комсомола, ОСОАВИАХИМ, МПВО и Красного Полумесяца в подготовке резервных кадров. На основе исторических источников раскрываются региональные особенности мобилизации, а также участие молодежи и женщин в оборонной подготовке.

Ключевые слова: Вторая мировая война, Хорезмская область, военная мобилизация, военная подготовка, военный комиссариат, ОСОАВИАХИМ,

женщины, молодежь, резервные кадры, региональная история.

MILITARY MOBILIZATION AND THE MILITARY TRAINING SYSTEM IN THE KHOREZM REGION DURING WORLD WAR II

Abstract. The article analyzes military mobilization, the volunteer movement, and general military training in the Khorezm region in 1941–1945. It examines the role of military commissariats, the Komsomol, OSOAVIAKHIM, MPVO, and the Red Crescent in preparing reserve personnel. Historical sources are used to assess regional conditions of mobilization and the participation of youth and women in defense training.

Keywords: World War II, Khorezm region, military mobilization, military training, military commissariat, OSOAVIAHIM, women, youth, reserve personnel, regional history.

KIRISH. Ikkinchi jahon urushining 1941-yil yozidan Sovet Ittifoqi hududiga yoyilishi O‘zbekiston SSRning barcha hududlarida iqtisodiy va ijtimoiy hayotni harbiy talablar asosida qayta tashkil etishga olib keldi. Xorazm viloyati ham qisqa vaqt ichida front uchun inson resurslari, oziq-ovqat, xom ashyo va turli mahsulotlar yetkazib beradigan hududlardan biriga aylandi. Mazkur jarayonda harbiy safarbarlik alohida o‘rin tutdi. Uning mazmuni faqat chaqiruv yoshidagi erkaklarni armiya safiga jo‘natish bilan cheklanmagan; aholini harbiy ishga o‘rgatish, mudofaa mutaxassislarini tayyorlash, tibbiy-sanitariya kadrlarini shakllantirish va yoshlarni qisqa muddatda zarur ko‘nikmalar bilan ta’minlash ham safarbarlik siyosatining tarkibiy qismi bo‘lgan [1; B. 489–491].

Xorazmning geografik va transport sharoiti bu jarayonga o‘ziga xos ta’sir ko‘rsatdi. Viloyat yirik sanoat markazlaridan uzoqda joylashgan, o‘sha paytda temir yo‘l aloqasi mavjud bo‘lmagan, markaz bilan yuk tashishda Amudaryo transportiga katta yuk tushgan edi. Shu sababli harbiy safarbarlik bilan bir qatorda mahalliy resurslarni tejash, ishlab chiqarishni uzluksiz saqlash va frontga ketgan ishchi kuchining o‘rnini ichki imkoniyatlar hisobiga to‘ldirish zarurati tug‘ildi. Hududiy materiallar Xorazmda safarbarlik jarayoni armiya, ishlab chiqarish va ijtimoiy hayotning o‘zaro bog‘langan tizimi sifatida kechganini ko‘rsatadi [3].

Mavzuni o‘rganishda sovet davrida yaratilgan tadqiqotlarning faktik bazasi bilan

keyingi davrda nashr qilingan umumlashtiruvchi asarlarni qiyosiy o‘rganish muhimdir. 1960–1980-yillardagi adabiyotlarda safarbarlik va mudofaa tashkilotlari faoliyati keng statistik materiallar asosida yoritilgan bo‘lsa-da, ularning talqinida davr mafkurasi seziladi. Zamonaviy hududiy tadqiqotlar mazkur ma’lumotlarni aniqlashtirish, mahalliy miqyosdagi jarayonlarni ajratib ko‘rsatish va xotin-qizlar hamda yoshlar ishtirokini kengroq baholash imkonini beradi [1; 2; 4].


ASOSIY QISM. Urush boshlangan dastlabki kunlardayoq Xorazmda ommaviy siyosiy va mehnat safarbarligi kuzatildi. 1941-yil 22-iyunda Urganch shahrida uch mingdan ortiq kishi qatnashgan miting o‘tkazilib, korxona va muassasalarda ishlab chiqarish intizomini kuchaytirish, rejalarni ortig‘i bilan bajarish va front ehtiyojlariga xizmat qilish majburiyatlari ilgari surildi. Bunday yig‘ilishlar viloyat tumanlari, kolxoz va sovxozlarida ham davom etdi. Safarbarlikning muhim belgilaridan biri frontga ixtiyoriy ketish istagining keng tarqalishi bo‘ldi. Viloyat harbiy komissarligiga urushning dastlabki kunlarida 1 156 ta ixtiyoriy ariza kelib tushgani, ulardan 147 tasi xotin-qizlar tomonidan berilgani qayd etiladi. Bu ko‘rsatkich mahalliy aholining urushga munosabatini, ayniqsa yoshlar va ayollar orasida harbiy xizmatga tayyorlik kayfiyati mavjud bo‘lganini ko‘rsatadi [1; B. 489].

Ixtiyoriy arizalar alohida tumanlarda ham ommaviy tus olgan. Urganch rayon harbiy komissariatiga 1941-yil 23-iyunning o‘zida ikki yuzga yaqin murojaat kelib tushgani, Qo‘shko‘pir tumanida esa bir guruh yoshlar jangovar qismlar tarkibiga yuborishni so‘rab kollektiv ariza bilan murojaat qilgani haqidagi ma’lumotlar saqlangan. Ixtiyoriylik bilan bir qatorda davlatning markazlashgan chaqiruv tizimi ham ishlagan. Chaqiriluvchilarni tibbiy ko‘rikdan o‘tkazish, harbiy qismlarga taqsimlash, yo‘lga tayyorlash va oilalari bilan bog‘liq tashkiliy masalalarni hal etishda harbiy komissariatlar asosiy institut vazifasini bajargan. Bu tizimning samaradorligi frontdagi ehtiyojlar kuchaygani sari yanada katta ahamiyat kasb etdi [2; 3].

Harbiy safarbarlikning ikkinchi yirik yo‘nalishi umumiy harbiy ta’lim edi. 1941-yil 17-sentabrda qabul qilingan umumiy majburiy harbiy tayyorgarlik haqidagi qarordan so‘ng 16 yoshdan 50 yoshgacha bo‘lgan erkaklar uchun 110 soatlik o‘quv mashg‘ulotlari yo‘lga

qo‘yildi. Bu tayyorgarlik ishlab chiqarishdan to‘liq uzib qo‘ymasdan tashkil etilgani bilan muhimdir. Harbiy o‘qitish punktlari, korxona va muassasalardagi to‘garaklar, kolxoz va sovxozlarda tashkil etilgan guruhlar orqali chaqiruv zaxirasidagi fuqarolarga saf, qurol bilan muomala, aloqa, sanitariya, havo va kimyoviy hujumlardan himoyalanish bo‘yicha boshlang‘ich bilimlar berildi [1; B. 489–490; 2].

Xorazm viloyatida oltita tuman va Urganch shahridagi harbiy komissariatlar qoshida umumiy harbiy ta’lim bo‘limlari faoliyat yuritgan. Viloyatda jami 11 ta harbiy o‘qitish punkti tashkil etilib, ular Urganch shahri, tuman markazlari va Qilichboy hududida joylashtirilgan. Tizimning hududiy yoyilishi chekka qishloqlardagi yoshlarni ham tayyorgarlik bilan qamrab olishga xizmat qilgan. Mahalliy harbiy ta’lim tarmog‘ini shakllantirishda OSOAVIAHIM, MPVO, komsomol va boshqa mudofaa tuzilmalari harbiy komissariatlar bilan hamkorlik qilgan. Bazarovning mudofaa-ommaviy tashkilotlar faoliyatiga bag‘ishlangan tadqiqoti bunday tuzilmalar urush yillarida zaxira kadrlarni tezkor tayyorlashda muhim o‘rin egallaganini ko‘rsatadi [2].



Tayyorgarlikning miqyosi ham e’tiborga loyiq. Urushning dastlabki oylarida viloyat harbiy ta’lim punktlarida 10 860 nafar pulemyotchi, snayper, tankchi, avtomatchi va boshqa harbiy mutaxassislar tayyorlangani qayd etilgan. Xotin-qizlarning ishtiroki ham sezilarli bo‘lib, 300 nafar qiz snayper, pulemyotchi, aloqachi va radist-operator yo‘nalishlarida o‘qitilgan [1; B. 490]. Bu holat urush davridagi safarbarlik siyosatida ayollarning roli kengayganini ko‘rsatadi. O‘zbekiston xotin-qizlarining mehnat va harbiy faoliyatiga bag‘ishlangan tadqiqotlar respublikaning turli hududlarida bu jarayon umumiy tendensiya bo‘lganini tasdiqlaydi [4].

Maktab va o‘rta maxsus ta’lim muassasalari ham harbiy tayyorgarlikning muhim bo‘g‘iniga aylangan. Viloyatda bu ishga 3 545 nafar yosh jalb etilgani, 1941–1942-yillarda harbiy to‘garaklarda 22 463 nafar o‘quvchi ta’lim olgani ko‘rsatiladi. 8–10-sinf o‘quvchilarining 95 foizi mudofaa va jismoniy tayyorgarlik nishonlari bo‘yicha belgilangan normalarni bajargan. Umumiy harbiy ta’lim shoxobchalarida 15 679 nafar o‘g‘il-qiz tayyorlangan, ularning 3 124 nafari muayyan harbiy mutaxassislikni egallagan. 62 740 kishining turli mudofaa normalarini bajargani safarbarlikning jamiyatning katta qatlamlarini

qamrab olganidan dalolat beradi [1; B. 490].

Front ehtiyojlari tibbiy-sanitariya kadrlarini ham tezkor tayyorlashni talab etdi. Qizil yarimoy jamiyati va mudofaa tashkilotlari tomonidan Urganch hamda boshqa markazlarda ikki oydan olti oygacha davom etadigan hamshiralik va sanitariya kurslari tashkil etildi. Xotin-qizlar ishlab chiqarishdan ajralmagan holda tibbiy bilimlarni o‘zlashtirib, keyinchalik front va gospital tizimida xizmat qilgan. Respublika miqyosida urush yillarida minglab tibbiyot hamshiralari, sandrujinachilar va sanitarkalar tayyorlangani haqidagi ma’lumotlar Xorazmdagi jarayonning umumrespublika siyosati bilan bog‘liq bo‘lganini ko‘rsatadi [3; 4].


Harbiy safarbarlik ishlab chiqarish va qishloq xo‘jaligida ishchi kuchi tarkibini ham tubdan o‘zgartirdi. Mehnatga layoqatli erkaklarning katta qismi frontga va mudofaa bilan bog‘liq sohalarga yuborilgach, sanoat korxonalari, MTSlar, kolxoz va sovxozlarda xotin-qizlar, o‘smirlar, keksalar hamda ilgari ishlab chiqarishda qatnashmagan aholining ulushi oshdi. Viloyat paxta tozalash zavodlariga yuzlab ayollar jalb qilindi, qisqa kurslar orqali yangi kasblar o‘rgatildi. Qishloq xo‘jaligida ayollar traktorchi, mexanik, brigadir va boshqa vazifalarni bajara boshladi. Bu o‘zgarishlar harbiy safarbarlikning iqtisodiy hayotdagi bevosita oqibatlaridan biri edi [4; 5].

Safarbarlik ko‘lamiga oid manbalarda turli raqamlar uchraydi. Bunday tafovutlar hisob usuli, hududiy chegaralar hamda “qatnashgan” va “safarbar etilgan” tushunchalarining bir xil qo‘llanmaganiga bog‘liq. Shu sabab ko‘rsatkichlarni manba kontekstida qiyosiy talqin qilish maqsadga muvofiq.

Harbiy ta’limning amaliy natijasi jangovar qismlarga yuborilayotgan yoshlarning boshlang‘ich ko‘nikmaga ega bo‘lishida ko‘rindi. Qurol ishlatish, aloqa, muhandislik, sanitariya va havo hujumidan mudofaa bo‘yicha tayyorgarlik front sharoitiga moslashish vaqtini qisqartirgan. Mahalliy darajadagi 11 ta o‘quv punktining mavjudligi, maktab va korxonalardagi kurslarning kengayishi hamda xotin-qizlar uchun alohida yo‘nalishlarning ochilishi Xorazmda markazlashgan, ko‘p bo‘g‘inli safarbarlik modelini shakllantirdi. Bu model bir vaqtning o‘zida front uchun kadr yetkazish va viloyat ichki hayotining uzluksizligini saqlash vazifalarini bajarishga qaratilgan edi [1; 2; 5].

XULOSA. 1941–1945-yillarda Xorazm viloyatidagi harbiy safarbarlik jarayoni markaziy chaqiruv tizimi, ixtiyoriy vatanparvarlik harakati va umumiy harbiy ta’limning uyg‘unligi asosida kechdi. Harbiy komissariatlar chaqiruv va hisob ishlarini tashkil etgan bo‘lsa, komsomol, OSOAVIAHIM, MPVO, Qizil yarimoy hamda ta’lim muassasalari zaxira kadrlarni tayyorlashga jalb etildi. 11 ta harbiy o‘qitish punkti, maktab va korxonalardagi kurslar hamda maxsus mudofaa to‘garaklari qisqa muddatda ko‘plab fuqarolarga boshlang‘ich harbiy va tibbiy ko‘nikma berish imkonini yaratdi.

Safarbarlikning muhim ijtimoiy xususiyati yoshlar va xotin-qizlarning faol ishtiroki bo‘ldi. Ixtiyoriy arizalarning bir qismi ayollar tomonidan berilgani, yuzlab qizlarning snayper, pulemyotchi, aloqachi va tibbiy yo‘nalishlarda tayyorlangani urush sharoitida an’anaviy mehnat va ijtimoiy rollar kengayganini ko‘rsatadi. Erkaklarning frontga ketishi sanoat va qishloq xo‘jaligida yangi mehnat zaxiralarini shakllantirishni talab qildi va bu holat viloyatning butun ijtimoiy tuzilishiga ta’sir ko‘rsatdi.



FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI

1. O‘zbekiston tarixi. XI jild. Xorazm tarixi / A.S. Sagdullayev [va boshq.]; mas’ul muharrir A.S. Sagdullayev. – Toshkent: O‘zbekiston NMIU, 2023. – 632 b.

2. Базаров Ю. Оборонно-массовые организации Узбекистана в годы Великой Отечественной войны (1941–1945 годы). – Ташкент: Фан, 1972. – 40 с.

3. Узбекистан в годы Великой Отечественной войны (1941–1945) / отв. ред. Р.Х. Аминова, Т.Д. Джураев. – Ташкент: Фан, 1966. – 207 с.

4. Мадраҳимова Р. Ўзбекистон хотин-қизларининг Улуғ Ватан уруши йилларидаги меҳнат ва ҳарбий жасоратлари. – Тошкент: Фан, 1981. – 148 б.

5. Вклад трудящихся Узбекистана в победу в Великой Отечественной войне / отв. ред. Х.Ш. Иноятов. – Ташкент: Фан, 1975. – 267 с.

6. Азимов Ҳ.И. Ўзбекистонликлар Иккинчи жаҳон уруши йилларида. – Тошкент, 2006. – 180 б.